

# **BOSHLANG'ICH SINFLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI**

## **Mamatmurodova Nigora Odina qizi**

## Termiz davlat universiteti 1-kurs talabasi

[nigoraodinayevna@gmail.com](mailto:nigoraodinayevna@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiyl o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinflarida axborot texnologiyalari fanini imkoniyatlaridan foydalanishning ilg‘or zamонавиу texnologiyalar bilan dars jarayonlarini uzviy jihatdan bog‘lannish usullarini keng joriy qilish usullari yoritilgan.

**Annotation** In this article, the methods of using the opportunities of information technology science in the primary classes of general secondary schools are highlighted, and the methods of integrating teaching processes with advanced modern technologies are widely introduced.

**Резюме.** В данной статье освещены методы использования возможностей информатики в начальных классах общеобразовательной средней школы, широко представлены методы интеграции учебного процесса с передовыми современными технологиями.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, zamonaviy axborot texnologiyalar, o‘qitish usullari, kompyuter, dars, ta’lim, bilim, fan, induvidial, innovatsion texnologiyalar.

**Key words and terms:** elementary school, modern information technologies, teaching methods, computer, lesson, education, knowledge, science, individual, innovative technologies.

**Ключевые слова и фразы:** начальная школа, современные информационные технологии, методы обучения, компьютер, урок, образование, знания, наука, индивидуальный, инновационные технологии.

O‘zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son va “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning-Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari to‘g‘risida qarori ta’lim

sifatini oshirish va ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda o'quvchining ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalasi o'qtuvchilarning diqqat markazida bo'lib, ular ta'limni isloh qilishda birinchi vazifa o'quvchilarda nafaqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, balki ularning induvidial ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishdan iboratligi belgilab qo'yilgan.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darslarga ijodiy yondashishini ta'minlash, ular faoliyatiga ilg'or texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o'quvchilarning dastlabki bilim egallash poydevori mustahkam bo'lishi, barcha fanlarni o'zlashtirishga qiziqishi shu jumladan ularga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelmoqda. Bugungi kunda o'qituvchilar oldiga katta mas'uliyat va talablar qo'yemoqda, bu talablarning eng asosiysi axborot texnologiyalari darslarini sifat va samaradorligi oshirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Bu esa ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatadi. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika va diafilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga "Men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman" deya o'ziga savol berishi ya'ni, boshlang'ich sinf o'quvchilariga dastlabki kompyuter savodxonligini va undan samarali foydalanishni yanada mukammallashtirib ta'lim berishga intilishi lozim. O'quvchilar kompyuter dasturi orqali oddiy didaktik materiallar tayyorlashda va ularni kompyuter sinflarida o'tiladigan darslarda o'quvchilarga mustaqil ishslash uchun va mantiqiy fikrlash uchun taqdim etish mumkin. Bunday didaktik material izohli matn sifatida, rasmlar bilan bezalgan holda, nazorat savollari bilan o'quvchilarga beriladi va o'quvchilar tomonidan bajarilishi nazorat qilinadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida eng muhim jihatlardan biri bu o'quvchilarning olgan bilimlarini xolisona va shaffof baholab borishlaridir. Barcha umumiyligi o'rta ta'lim ta'lim maktab boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining turli bo'limlariga oid nazorat savollari va testlarni kompyuter yordamida tuzish ijobiy natija beradi. Ma'lumki, ta'lim bu o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligidagi faoliyat turi bo'lib, dars orqali o'qituvchi o'z

bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga etkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib olishi natijasida undan samarali foydalanish kompetensiyalariga ega bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi bilimlarni o'rganish jarayonida esa o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishlari tabiiy hol masalan, ma'lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash hamda amaliyatga tatbiq etish kabi jarayonlarda amalga oshadi. Hozirgi kunda umumiyligi o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab quyidagilarga alohida etibor berish tavsiya etiladi:

- darsning maqsadi;
- darsning maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining bajarish turlari;
- muhokama va mulohazalar yuritish uchun savol va topshiriqlar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olish lozim bo'ladi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'lim sohasini tubdan isloq qilish, yoshlarga zamonaviy bilim berish, aqliy salohoyatini boyitishda ulkan imkoniyat eshiklari ochilgan bo'lib, ta'lim sohasini yanda rivojlantish va uni takomillashtirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqilgan. O'qituvchi dars jarayonlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'qitishning qulayligiga, bilimning tez va oson o'zlashtirilishdagi eng muhim vosita ekanligi alohida ahamiyatga egadir. Chunki, muktab boshlang'ich ta'limining barcha sohasida zamonaviy texnologiyalar bilan dars jarayonlarini uzviy jihatdan bog'lannish yuzaga chiqara oladi. Pedagogik vositalar nafaqat o'qituvchi balki o'quvchilarning ham bir xilda ish olib borishiga fikr olish uni tatbiq etishiga undaydi. Ayniqsa bu jarayonlarning amaliy ahamiyatini boshlang'ich ta'lim jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

- boshlang'ich sinflarda multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarda axborot texnologiyalari faniga qiziqishi rivojlanadi;

- ta'larning bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi yanada oshadi;
- namoyish qilinishi murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi;
- o'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi;
- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish uchun imkoniyat yaratiladi;
- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishiga zamin yaratadi;
- yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish uchun sharoit yaratiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha umumiyo o'rtalim maktablari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Boshlang'ich sinf darslari o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o'qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o'zgartirib, o'qituvchilik faoliyatini yanada serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari hozirgi kunda eng ilg'or texnologiyalar hisoblanadi. Bunda har bir sohada har bir inson faol bo'lishini taqozo etadi. Shu jumladan, biz boshlang'ich sinflarga darsni samarali o'tish unda axborot texnologiyalaridan o'rinli foydalanish hamda ularning ahamiyati va samaradorlikni oshirishdagi xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4306-son qarori. Toshkent, 2019 yil, 3 may.
2. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumayev M. E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "Turon-iqbol" 2008 yil., 160 bet
3. Bekmurodova, J.A. Boshlang'ich sinflarda o'quv materiallarining o'ziga xos xususiyatlari.2020 yil. № 2 (292). 447 bet.
4. <https://kun.uz/news/2019/11/27/boshlangich-sinfda-oqitishning-zamonaviy-texnologiyalaridan-foydalanish-usullari?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F11%2F27%2Fboshlangich-sinfda-oqitishning-zamonaviy-texnologiyalaridan-foydalanish-usullari>